



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

SINTAKTIK BIRLIKLAR BADIYYATINING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Ibragimova Fazilat Erkinovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ellipsis ham antiellipsis hodisalarining qaysi sintaksisga nisbat berilmasin, bu talqinlarning barchasida ellipsisning estetik ta’sir quvvati, umuman, lingvopoetik imkoniyati bilan bog‘liqligi e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Ekspressivlik, kommunikatsiya, nutq sostavi, ekspressiv-emotsional shakl, nolingvistik vosita, logik kategoriya, lingvopoetik tadqiqot, badiiy matn, lingvostilistik tahlil, estetik vazifa, antiellipsis hodisasi.

ИЗУЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СИНТАКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Ибрагимова Фазилат Эркиновна

доцент Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация.

В статье отмечается, что независимо от того, к какому синтаксическому уровню соотносятся явления эллипсиса и антиэллипсиса, во всех интерпретациях признаётся их связь с эстетической силой воздействия эллипсиса и, в целом, с его лингвопоэтическими возможностями.

Ключевые слова: экспрессивность, коммуникация, состав речи, экспрессивно-эмоциональная форма, неязыковое средство, логическая категория, лингвопоэтическое исследование, художественный текст, лингвостилистический анализ, эстетическая функция, явление антиэллипсиса.

THE STUDY OF THE AESTHETIC POTENTIAL OF SYNTACTIC UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

Ibragimova Fazilat Erkinovna

Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract.

This article argues that regardless of which syntactic level the phenomena of ellipsis and anti-ellipsis are attributed to, all such interpretations acknowledge their connection with the aesthetic power of ellipsis and, more broadly, with its linguopoetic potential.

Keywords: expressiveness, communication, speech structure, expressive-emotional form, non-linguistic means, logical category, linguopoetic research, literary text, linguostylistic analysis, aesthetic function, anti-ellipsis phenomenon.

Ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli ancha keng qamrovli bo‘lib, u kommunikatsiyada ham, subyektiv munosabatda ham o‘zining asl mohiyatini ko‘rsata oladi. V.A.Bogorodskiy aytganidek, “Morfologiya ayrim kategoriyalarning, ular formalarining inventarlaridan iborat. Sintaksis esa bu so‘z formalarining hammasini harakatda va hayotda, nutq sostavida ko‘rsatadi”. Bunda morfologiya va sintaksisning o‘zaro aloqadorligi va grammatik mohiyati ko‘rsatilgan.

Aniqki, gap so‘zlardan tuziladi va har bir so‘z gap ichida o‘zining chin semantik mohiyatini namoyon etadi. Sintaksisda prosodik — intonatsion vositalar ham muhim

ahamiyat ega, chunki har bir gap intonatsion tugallik bilan talaffuz qilinadi. Aynan ana shu intonatsiya sintaktik hodisalarni turlicha ifodalay oladi. Masalan, *Keldingmi?* (so‘roq), *Keldingmi!* (tasdiq), *Keldingmi* (kesatq). Intonatsiya gapning o‘zini uyushtiradi, uning semantik, grammatik xususiyatlarini ochib beradi. Gapning neytral va ekspressiv mazmunini farqlab beradi. “Sintaksisning stilistika uchun juda muhimligi shu bilan belgilanadiki, birinchidan, gap nutqning asosiy birligi sifatida tafakkur va aloqa uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, gap rus tilida turli-tuman ko‘rinishga egaligi bilan farqlanadi”.

A. N. Gvozdevning bu fikrini o‘zbek tili faktlariga ham tatbiq etish mumkin. Chunki o‘zbek tilida ham gapning ifoda maqsadi ifoda shaklini belgilaydi va aksincha, ifoda shakli uning mazmunini ifodalaydi. Mazmun va shakl munosabatlari gapda ekspressivlik ifodalashning muhim omilidir. Masalan, “*Do‘stlar bilan birga dam olish hammadan yaxshi*” gapi o‘rnida “*Do‘stlar bilan dam olish! Qanday yaxshi*” shakli qo‘llanishi, “*Tandirdan uzilgan issiq nonni hamma xohlaydi*” gapi o‘rnida “*Tandirdan uzilgan issiq nonni kim xohlamaydi?!*” Ko‘rinadiki, qiyoslanayotgan gaplarning birinchilari nutqning intellektual shakli bo‘lib, keyingilari nutqning ekspressiv-emotsional shaklidir. Sintaksisda bunday ekspressiv-emotsional imkoniyatlar juda ko‘p. Ulardan sintaktik sinonimiya, so‘roq, buyruq gaplarning ayrim ko‘rinishlari, undov gaplar, bir sostavli gaplar, inkor va tasdiq shakllarining zid ma‘noda qo‘llanishi, gapda inversiya hodisasini misol qilib keltirish mumkin. Ekspressivlik ifodalanishini bir sistema sifatida ko‘rib chiqish, uning tilshunoslikda hali maxsus o‘rganilmagani nuqtayi nazaridan qaraganda ham katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

A. Abdullayev “O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi” monografiyasida “Gapda so‘zlar tartibi”, “Ritorik so‘roq gaplar”, “Takroriy gaplar” kabi masalalar haqida to‘xtalib o‘tadi. Tasdiq va inkor gaplar, siqiq konstruksiyali gaplar, undalmalar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, qiyoslash munosabati asosida tuzilgan gaplar, sintaktik sinonimiya va ekspressivlik ifodalovchi nolingvistik vositalar (mimika va jest) kabi masalalar ham ushbu kitobdan o‘rin olgan. Qiyoslash munosabati tafakkurga xos hodisa bo‘lib, nutqda gap shaklida, grammatik vositalar yordamida ifodalanadi. Demak, qiyoslash asosida tuzilgan gaplar sintaktik hodisaga mansub. Bunday gaplarning o‘ziga xos semantik, emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o‘rganish, ayniqsa, qiyoslashning ko‘rinishlarini tahlil qilish zaruriyati kelib chiqadi. Qiyoslashning o‘xshatish, tenglashtirish, taqqoslash, zidlash kabi hodisalarni bir-biridan farqlash juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Inson o‘z hayotiy tajribalari, kuzatishlari natijasida jamiyat va tabiatda yuz beradigan hodisalarni, qonun-qoidalarni o‘rganadi va kishi ongida aks etuvchi fikrlar hayotiy tajribalar asosida to‘plangan xulosalar bo‘lib, negativ xarakterdagi logik kategoriyaga xos hodisalardir. Badiiy matnda grafik usulni yuzaga keltirishda uzilishlar (apoziopeziz) poetik jihatdan aktuallashadi, ya‘ni tegishli badiiy ma‘nolar kasb etadi. Bunda ba‘zan asar qahramoni turli hissiy holatlar bilan bog‘liq holda aytmoqchi bo‘lgan fikrning aniq va o‘rinli ifodasi uchun zarur bo‘lgan so‘zni qidirib qoladi. Ana shu so‘z izlash jarayonida, tabiiyki, nutq oqimida uzilishlar bo‘ladi. Bu uzilishlar, to‘xtamlar badiiy matnda ko‘p nuqta vositasida ta‘kidlanadi. Bunday uzilishlar nutqning butunligiga ta‘sir qilgan bo‘lib ko‘rinsa ham, aslida, matn integratsiyasini kuchaytiradi, matnga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi. Lingvopoetik tadqiqotlarda leksik-semantik vositalarga ham alohida e‘tibor berilgan. Ularning shakl va ma‘no-munosabatiga ko‘ra turlari, ko‘chimlar, ibora, shevaga xos so‘zlar, dag‘al so‘zlarning estetik vazifalari yoritilgan. Badiiy maqsadni ochish uchun so‘zlarning doimiy iste‘moldagisini emas, balki estetik salmog‘i yuqori shakli qo‘llanadi. Atoqli tilshunos N. Mahmudov sinonimlar haqidagi maqolasida quyidagi fikrni ilgari surgan: “... tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta‘min etadigan muntazam va betimsol omillardan

biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir”.

Sinonim so'zlardan foydalanish mahoratini tadqiq qilishda ikki muhim jihatni: ma'nodosh so'z(lar)dan ifodalalayotgan ma'no-mazmun uchun eng maqbulini tanlashni; ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zlarni badiiy tasvir maqsadiga hamohang holda qo'llashni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Masalan, *eti qochgan*, vazni me'yordan kam mazmunini ifodalovchi *ozg'in* so'zining sinonimlar qatoridagi *oriq*, *qiltiriq*, *dirdov*, *ipiltiriq*, *ramaqijon*, *qoqsuyak*, *log'ar* kabilarni kiritish mumkin. Ulardan *ramaqijon* so'zi boshqalariga qaraganda belgi darajasi yuqori bo'lib, bu so'zda mazkur ma'no obrazli tarzda ifodalanib, holdan toyganlik ma'nosi kuchli ta'kid oladi hamda so'zlovchining kamsitishdan iborat shaxsiy munosabati ham anglashiladi. Bular qatorida *ramaqijon* qadimgi so'zlardan bo'lsa, uning nutqdagi yangi sinonimi *skelet*, *zubachistka* kabi so'zlardir.

Bulardan tashqari zid ma'nolilikning voqea-hodisalar, aqliy-ruhiy jarayonlar o'rtasidagi zidlikni bo'rttirib ko'rsatishga faol ishlatiladi. Badiiy matnda ifodalilik, ohangdorlik, komik effektini hosil qilish maqsadida paronimlardan foydalanish an'anasi mavjud. Ijodkorlar asarlarida bu vositadan komik effekt hosil qilish maqsadida o'rinli foydalanishgan. Masalan:

– *Endi turib o'tirsangiz ham bo'laveradi, ko'tarilib bo'ldik*, – dedi. Fayzulla uning qo'lidan tortib...

– *Siz ham putyovka bilan ketyapsizmi, uka?* – dedi Qo'zivoy sal o'ziga kelib.

– *Bizniki biznes*, – erinchoqlik bilan javob qildi Fayzulla.

– *Firmaning ishlari bilan ketyapman*.

– *Iye, sizam fermamisiz?* – dedi Qo'zivoy qarindosh chiqib qolganday quvonib.

– *Bizda ham Qarshi ferma degani bor... O'sha yubordi-da, bo'lmasa menga nima...*


– *“Ferma”mas, “firma!”* – ta'kidladi Fayzulla.

(Sh.Boshbekov “Musofir bo'lmaguncha”, 456-bet)

Ushbu misolda Qo'zivoy *firma* va *ferma* paronimlarini farqlay olmasligi tufayli kulgili vaziyatga tushadi.

Shuni ta'kidlash zarurki, lingvopoetikaning asosiy o'rganish obyekti badiiy matndir. Badiiy matnning nutqning turli ko'rinishlariga xos bo'lgan boshqa matnlar bilan taqqoslaganda, uning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. “Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya – fikr – mazmunni tushunish, anglash shunchaki emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goho ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tagma'nolar, kosa tagidagi nim kosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash ma'naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo'ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun, bundan tashqari, ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi”.

Buni quyidagi chizmada ko'rish kerak.



Bizga ma'lumki, lingvostilistik tahlil lingvopoetik tahlilning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Navbatdagi vazifa ular o'rtasidagi munosabatni aniqlashdir. Shu sababdan, til vositalarining badiiy matndagi o'rnini belgilash zarurdir. Badiiy asar tilini o'rganishga

bag'ishlangan tadqiqotlarda shu mavzuga oid turlicha atamalar uchraydi. Masalan, "tilning ekspressiv vazifasi", "tilning poetik vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi. "Ammo shuni ham aytish kerakki - deb ta'kidlaydi M.Yo'ldoshev, - "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng".

Ko'rinadiki, tilning estetik vazifasi asosiy bo'lib, shu jihatdan murakkab hisoblanadi, uning ta'sir imkoniyatlari ma'lum uslubiy maqsadga bo'ysundirilgan holda badiiy nutqda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu haqda N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlantirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi... Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta'sir quvvatini namoyon etadi". Kommunikatsiya jarayonida qo'llanadigan ta'sir etish vazifasini bajaradigan til birliklarini lingvostilistik jihatdan izohlash mumkin. Bu tahlil orqali ma'lum matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochish uchun unga semantik tahlil ham talab qilinadi, bu esa til birliklarining rolini aniqlashga imkon beradi.

Demak, lingvopoetik tahlilning maqsadi muallif tomonidan u yoki bu til birligi so'z yoki so'z birikmasi, sintaktik konstruksiyasining badiiy jarayonga qanday kiritilishi, til vositalarining ma'lum estetik effekt yaratilishiga qanday yo'l bilan olib kelishini aniqlashdan iboratdir. Ekspressivlik umumtil kategoriyasi sifatida til sathlarining hammasiga tegishli bo'lib, ifoda vositalari turlari cheksizdir.

Ekspressivlikning nutqda yoki matnda yuzaga kelishi kommunikativ vaziyatga ega: so'zlovchining maqsadi, tinglovchining prezumpsiya (kommunikatsiyaga kirishdagi taxminiy faraz) va kommunikativ aktning lingvistik hamda ekstralingvistik (sotsial) konteksti. Ekspressivlik bir qator murakkab lingvistik kategoriyalar bilan bog'liq. Ekspressivlik bilan emotsionallik bir-biri bilan juda yaqin aloqadadir, ba'zan bu tushunchalar bir-biriga sinonim sifatida qo'llanadi, ba'zan juft so'z sifatida qo'llanadi. Bu ikki kategoriya doimo kesishadi, ularning umumiy qismini emotsional ekspressivlikning keng diapozoni tashkil qiladi. Kesishmaydigan spektorlar esa denotativ mazmundagi komponentlar tashkil qiladi, ular " mantiqiy" ekspressivlik bilan emotsionallikka ega bo'lmagan qismga emotsiyalarni bog'lash uchun xizmat qiladi.



Shu bilan birga ekspressivlik aktsenlik va intensivlik, baho, persuazivlik (tinglovchiga ifodaviylik bilan taʼsir oʻtkazish), obrazlilik va tasvirlash bilan bogʻliq. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin:

Maʼlumki, insonlar gapiradi va boshqalarning nima deyotganini eshitadi, yozadi va oʻqiydi. Shundan nutqning ikki shakli – tovush shakldagi ogʻzaki va grafik shaklga ega yozma nutq vujudga keladi. Bu ikki shakldan ogʻzaki nutq birlamchi asosiy hisoblanadi. Yozma nutq tarixiy jihatdan ogʻzaki nutq asosida paydo boʻldi va ogʻzaki aytilgan nutqni eslab qolish, uni qayta tiklash uchun qoʻllanadi. Ogʻzaki va yozma nutqning birligini tushunish uchun nutqning ichki fikriy tushunchasini aniqlash zarur. Bunday nutq shakli ichki material shaklga ega emas. Uning ekvivalenti boʻlib maʼlum nutqiy obraz keladi, bu obraz tinglash (tovush orqali), harakat qilish (grafik) orqali ifodalanishi yoki ularning har xil kombinatsiyalarida kelishi mumkin. Matnni oʻqish orqali biz faqat koʻz orqali matnni qabul qilmay, balki oʻzimizning ichki nutqimiz bilan matnni anglaymiz. Har qanday matnning yozma shakli insonning ichki nutqi natijasida namoyon boʻladi. Taʼkidlash joizki, oʻlik tillar uchun tadqiqotchilar tomonidan meʼyor qilib yaratilgan tovushlar orqali oʻqiladi. Maʼlumki, til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotidan ajralgan holda mavjud boʻlmaydi va shu til egalari boʻlgan insonlarning ijtimoiy hayoti bilan bogʻliqdir. Shuning uchun biz ogʻzaki va yozma nutq shakllari munosabati haqida toʻxtalganimizda yozma nutq madaniy til uchun katta ahamiyatga ega ekanligiga eʼtibor berishimiz kerak. Tabiiy inson nutqida birinchi planga maʼlum til ifodalari chiqadi. Aynan ular tinglovchi tomonidan toʻgʻri qabul qilinadi. Til oʻzining kommunikativ vazifasi insonga faqat fikrini ifodalash uchun emas, balki subyektiv munosabatni bildirish uchun ham xizmat qiladi. Chunki emotsiyalar, baho, istak kabilar insonning haqiqatni anglashining ajralmas faktoridir. “Intilish, istak, emotsiya va his-tuygʻu haqiqatning yuzaga chiqishi va bizning tasavvurimizdagi predmetlar bizning qiziqish va talablarimizni aks ettiradi hamda olam bilan aloqamizni ifodalaydi, unga boʻlgan intilishimizni, u bilan chambarchas bogʻliq ekanligimizni bildiradi... Haqiqatning narsa va hodisalari shu tariqa psixologik hodisalarning paydo boʻlishiga olib keladi”. Inson fikri til bazasida jarayonga kirishib nutqda shakllanadi va tilning ekspressiv vazifasi natijasida turlicha ekspressiv boʻyoqqa ega boʻladi. Tilning ekspressiv vazifasi soʻzlovchining emotsional holatini ifodalaydi, uning belgilangan narsa va haqiqat hodisalariga subyektiv munosabatini ifodalaydi. Ekspressivlikning eng muhim elementlaridan biri ekspressiv sintaksisdir.

Ekspressiv sintaksis muammolari zamonaviy lingvistikada eng aktual muammo hisoblanadi. Bu matn strukturasi intensiv oʻrganishi bilan bogʻlanadi, matndagi til egasining subyektiv nutqiy faoliyati, soʻzlashuv nutqining pragmatik aspektlari, ogʻzaki-dialogik nutq, soʻzlovchi va tinglovchi munosabati, nutq ifodaliligini kuchaytiruvchi va tinglovchiga taʼsir kuchini oshiruvchi birliklarni tahlil qiladi. Ekspressiv sintaksisni oʻrganishning ahamiyati haqida taniqli lingvist olimlar taʼkidlab oʻtgan. Akademik V.V.Vinogradov sintaksisni stilistik oʻrganish doirasiga “ekspressiv muammoni – ifodali, tasviriy maʼno qirralariga ega boʻlgan u yoki bu sintaktik konstruksiyalar yoki maʼlum sintaktik konstruksiyalar kombinatsiyalari”ni kiritadi.

E.M.Beregova asarlarida ekspressiv sintaktik konstruksiyalarni tinchlikdagi sintaktik konstruksiyaga zidlaydi. Ekspressivlik “sintaktik shakllarning pragmatik potensialini leksik maʼno elementlari orqali erishilgandan koʻra yuqori darajada kuchaytiruvchi sintaktik shakllarni toʻldiradi”. Muallif ekspressiv sintaksisning muammosi sifatida gapning uzunligini,

abzatsning stilistik vazifasini va murakkab sintaktik butunligini, punktuatsiyaning potensial effektini, individual uslub, sintaktik figura va stilistik vazifani o'rganadi.

Ma'lumki, turli stilistik priyomlar va ekspressiv vositalar tarjimasida tarjimonlarni turli tillarning stilistik milliy xususiyatlari ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko'p lingvistlar tarjimada originallikni saqlab qolish zarurligini, tarjimada priyomni emas uning vazifasini yoritishga harakat qilishlari zarurligini ta'kidlaydilar. Matnning ekspressivligi og'zaki nutq ekspressivligi bilan umumiyliklarga ega. Ekspressiv sintaksisning vositalari yordamida yozuvda nutqning xususiyatlari realizatsiyalanadi. Konkret muloqot aktida nominativ tuzuvchilar (so'z birikmalari) o'zlaricha mazmunli axborotni tashuvchi bo'la olmaydi. Ular "dinamik sintaksis"da ma'lum axborot berishi mumkin. Bu holatda aktual bo'linish yuzaga chiqadi. Dinamik sintaksisda birinchi planga matn chiqadi, u murakkab sintaktik butunlikka to'g'ri keladi. Gap orqali berilayotgan axborot matndagi har bir gapni aktualashtiradi. Bunday tadqiqotlar predikativlik kategoriyasi haqidagi ta'limotlar asosida yuzaga keldi. V.V.Vinogradov aytganiday, "...gapni shakllantiradigan umumiy predikativlik kategoriyasining mazmuni va tayinlanishi gap mazmunining haqiqatga munosabatini o'z ichiga oladi". Ko'rinadiki, matn mazmunining haqiqatga aylanishi gapning predikativligiga tayanadi. Uning grammatik ifodalanishiga zamon, modallik va shaxs kategoriyalari xizmat qiladi. Aktual bo'linish ekspressiv sintaksisning muhim elementi hisoblanadi, chunki u aytuvning mazmuniy aniq chegarasini ko'rsatadi, og'zaki yoki yozma nutqqa har xillik, rang-baranglik olib kiradi.

A.P. Skovorodov rus tilidagi ekspressiv sintaktik konstruksiyalar sistemasini o'rganib, bu konstruksiyalar qatorining boshida ellipsis va antiellipsis hodisalarini keltiradi. Boshqacha aytganda, ekspressiv sintaktik konstruksiyalar muayyan maydonni tashkil qilishi va maydonning markazida ellipsis va antiellipsis turishini, ekspressiv sintaksisning boshqa hodisalari esa maydonning chetlarida (periferiyasida) joylashishini ta'kidlaydi. O.V.Aleksandrova "Проблемы экспрессивного синтаксиса" kitobida matnning ifodaliligini ta'minlaydigan ekspressiv sintaksisning bir qancha usul va hodisalari qatorida ellipsisning alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tadi. K.A. Dolinin "Стилистика французского языка" kitobida elliptik konstruksiyalarning affektiv, ya'ni his-tuyg'ularga ta'sir imkoniyatidan kelib chiqqan ba'zi tilshunoslar ellipsisni emotsional sintaksis hodisasi sifatida talqin qiladi. Ellipsisning poetik potensialini alohida ta'kidlash maqsadida ayrim tadqiqotchilar uni to'g'ridan to'g'ri poetik sintaksis figurasi ekanligini qayd etadilar. Aytish lozimki, ellipsis (antiellipsis ham) hodisasi qaysi sintaksisga nisbat berilmasin, ya'ni ekspressiv sintaksisgami, emotsional sintaksisgami yoki poetik sintaksisgami, bu talqinlarning barchasida ellipsisning estetik ta'sir quvvati, umuman, lingvopoetik imkoniyati e'tirof etilgan. M.Mirtojev yozganiday, "Lingvistik ellipsis tarkibli so'z, ibora kabi lug'aviy birliklarning komponentlaridan birining qisqarishi hisobiga sodir bo'ladi. Bu qisqargan komponentning ma'nosini ifodalash vazifasini saqlanib qolgan komponent o'z ustiga oladi. Bu esa shu komponent qanday ma'no bilan lug'aviy birlikni yasashda qatnashgan bo'lsa, o'sha ma'noga tobe bo'ladi".

Umuman, sintaktik birliklar badiiyati va lingvopoetikaning vositalari kuchli ta'sirchanlikka ega bo'lib, tilning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ularni aniq va chuqurroq o'rganish ham nazariy va praktik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ammo ushbu ilmiy ishlar bilan tanishganimizda sintaktik birliklar badiiyati to'liq o'rganilmaganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аржанова И.А. Функционально-коммуникативные и лингвопоэтические функций эллиптических онструкций в современной художественной литературе на английском языке: Дис. ... канд. филол. наук.–М., 1999. –188 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М: “Советская энциклопедия”, 1969. – 608 с. [Электронная версия <http://www.classes.ru/grammar/174.Akhmanova/>].-204 с.
3. Ахманова О.С., Гюббенет И.В. Вертикальный контекст как филологическая проблема. – Вопросы языкознания 1977 N3 – С. 47-54.
4. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Издво иностранной литературы, 1955. – 416 с.ж; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1961. – 394 с.
5. Гальперин. И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд-во лит. На иностр. языках, 1958. – 462 с.
6. Задорнова В.Я. Стилистика английского языка. Методические указания.– М.,1986. – 23 с.
7. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. — М.: «КомКнига», 2006. – 22-23 с.